NAVOIY VILOYATI UCHQUDUQ TUMAN HOKIMINING QARORI

Uchquduq tuman A.Temur - 28 tel: (79) 222-00-05

2021 - yil 15 - oktabr 59-5-76-Q/21 Uchquduq tumani hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2022-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida” Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 28-aprelda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan 642-sonli Qonunning 39-moddasi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y.,5-6-son, 97-modda), O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo’lgan shaxslarning huquqlari to’g’risida”gi Qonunning 43-moddasi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2020 yil 15 oktyabr, O’RQ-641-son), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017-yil 24-maydagi PQ-3001-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 22-son, 420-modda, 37-son, 982-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi 965-sonli qarori (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.12.2017-y., 09/17/965/0393-son) bilan tasdiqlangan Nizomga asosan 2022-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni (keyingi o‘rinlarda - ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar deb yuritiladi) ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilashi va zaxiraga qo‘yishi lozim bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli Qonunning 39-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun xodimlarning o‘rtacha soni 20 nafar va undan ko‘pni tashkil etadigan korxona, tashkilot va muassasalarda 2022-yil uchun 10 foizgacha miqdorda jami 309 nafarni tashkil etadi, shu jumladan:

yolg‘iz ota-onalar hamda o‘n to‘rt yoshgacha bolalari va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va ko‘p bolali ota-onalar toifasi uchun 8,04 foiz 25 (nafar);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarini davlat grantlari asosida tamomlagan bitiruvchilar toifasi uchun 58,90 foiz 182 (nafar);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar toifasi uchun 7,12 foiz 22 (nafar);

nogironligi bo‘lgan shaxslar toifasi uchun 5,18 foiz 16 (nafar);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar tofasi uchun 2,59 foiz 8 (nafar);

jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar tofasi uchun 4,85 foiz 15 (nafar);

odam savdosi jinoyatidan jabrlangan shaxslar toifasi uchun 1.94 foiz 6 (nafar);

og‘ir turmush sharoitidagi xotin-qizlar (tasdiqlangan ro‘yxat asosida) toifasi uchun 11,33 foiz 35 (nafar)

3. Ushbu toifaga mansub shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarini davlat grantlari asosida tamomlagan bitiruvchilari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun – ulaning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun – mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olgan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun – ulaning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan

yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun – ulaning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosi jinoyatidan jabrlangan shaxslar uchun - ulaning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

Og‘ir turmush sharoitidagi xotin-qizlar (tasdiqlangan ro’yxat asosida) uchun - ulaning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

4. Ish o‘rinlarini band qiluvchi korxona va tashkilotlar rahbarlariga: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda - Nizom deb yuritiladi) muvofiq ushbu qarorning ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasin;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2021-yil yakunlanishidan 10 kun oldin band qilingan ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foiziga qo‘yilishi va tayyorligi ta’minlansin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazini xabardor qilsin;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar, ya’ni 2022-yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlansin, bu haqda tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga birinchi chorak tamom bo‘lganidan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

tashkilot har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etsin;

tashkilot tomonidan ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

5. Tuman hokimining muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qaror bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot va korxonalarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanadi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya

va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘iga (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3163) asosan ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga subsidiya ajratilishi tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (keyingi o‘rinlarda ABKM deb yuritiladi) direktori (J.Shodiyev)ga yuklatilsin.

7. Tuman ABKM direktori (J.Shodiyev) mazkur qarorni besh kun muddatda qarorning ilovasida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlariga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.
8. Mazkur qaror “UCHQUDUQ” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.
9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Bafoyev) zimmasiga yuklatilsin.
10. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **С. Хамроев**

Учқудуқ туман ҳокимининг
2021 йил 15 октябрдаги
59-5-76-Q/21-сон қарорига
1-илова

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qaroriga asosan Uchquduq tumani bo’yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj hamda ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2022-yilda band qilib qo’yilgan ish o’rinlari to’g’risida

№	Zaxiralangan ish o’rinlarini yaratish bo’yicha topshiriq berilgan korxona nomi	Shtat birligi bo’yicha xodimlar ning o’rtacha umumiy soni	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish topishda qiynalayot gan mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtrish uchun ish o’rinlarining eng kam soni	Shundan:							
				14 yoshgacha va nogiron bolalari bo’lgan yolg’iz va ko’p bolalai ota-onalar	Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-xunar ta’limi muassasalarini ta’momlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarini davlat grantlari asosida tamomlaganlar	Safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o’tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safaridan muddatli xarbiy xizmatdan bo’shatilganlar	Nogiron lar bo’lgan shaxslar	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni o’tash muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko’ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo’llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurbonlari uchun	Og’ir turmush sharoitidagi xotin-qizlar (tasdiqlangan ro’yhat asosida)
1	Shimoliy kon boshqarmasi	**9896**	**100**	**5**	**70**	**15**	**1**		**2**	**1**	**6**
	Navoiy kon metallurgiya kombinati jamg’armasi davlat muassasasi Uchquduq hududiy boshqarmasi	**1182**	**60**	**4**	**32**		**3**	**3**	**6**		**12**
2	1-umumiy o’rta ta’lim maktabi	**33**	**2**		**1**						**1**
3	2-umumiy o’rta ta’lim maktabi	**25**	**2**		**1**						**1**
4	3-umumiy o’rta ta’lim maktabi	**101**	**5**		**3**			**1**		**1**	

5	4-umumiy o’rta ta’lim maktabi	**4**	**3**		**3**						
6	5-umumiy o’rta ta’lim maktabi	**68**	**2**	**1**	**1**						
7	6-umumiy o’rta ta’lim maktabi	**33**	**2**		**2**						
8	7-umumiy o’rta ta’lim maktabi	**147**	**3**	**1**	**2**						
9	8-umumiy o’rta ta’lim maktabi	**25**	**2**	**1**			**1**				
10	9-umumiy o’rta ta’lim maktabi	**83**	**4**		**3**		**1**				
11	10-umumiy o’rta ta’lim maktabi	**115**	**2**		**2**						
12	11-umumiy o’rta ta’lim maktabi	**36**	**3**	**1**	**1**		**1**				
13	12-umumiy o’rta ta’lim maktabi	**43**	**2**	**1**	**1**						
14	13-umumiy o’rta ta’lim maktabi	**52**	**3**		**2**			**1**			
15	15-umumiy o’rta ta’lim maktabi	**24**	**2**		**1**			**1**			
16	18-umumiy o’rta ta’lim maktabi	**112**	**2**	**1**	**1**						
17	20-umumiy o’rta ta’lim maktabi	**133**	**3**		**3**						
18	1-Kaptarcha DMTT	**66**	**2**		**2**						
19	2-Quyoshjon DMTT	**90**	**4**	**1**	**2**						**1**
20	3-Buldurshin DMTT	**20**	**1**		**1**						
21	4-Qaldirgoch DMTT	**21**	**2**		**2**						
22	5-Yulduzcha DMTT	**55**	**1**		**1**						
23	6-Jasulan DMTT	**32**	**2**		**1**						**1**
24	7-Yosh Geologlar DMTT	**21**	**1**		**1**						
25	8-Quyoncha DMTT	**25**	**1**		**1**						

26	9-Baldirgan DMTT	**20**	**1**		**1**						
27	10-JOY OF BABIES DMTT	**48**	**1**		**1**						
28	11-Kelajak yulduzlari DMTT	**50**	**1**		**1**						
29	12-Tabassum DMTT	**69**	**3**		**1**						**2**
30	13-Laylakchcha DMTT	**13**	**1**		**1**						
31	14-Ertak DMTT	**72**	**1**		**1**						
32	15-Kamalak DMTT	**48**	**3**		**2**						**1**
33	10-Sonli Bolalar musiqa va san’at maktabi	**65**	**2**		**2**						
34	Barkamol avlod bolalar maktabi	**46**	**1**		**1**						
35	Uchquduq tuman madaniyat bo'limi	**27**	**1**		**1**						
36	Uchquduq tuman Xalq ta'limi bo'limi	**38**	**3**		**2**		**1**				
37	Uchquduq tuman Issiqlik manbai DUK	**242**	**24**	**2**	**10**	**1**			**3**		**8**
38	Uchquduq tuman bolalar va o'smirlar sport maktabi	**38**	**1**		**1**						
39	Uchquduq tuman tibbiyot birlashmasi	**616**	**13**	**3**	**5**		**2**	**1**	**1**		**1**
40	Uchkuduk tuman SEO va JS	**33**	**1**		**1**						
41	Uchquduq tuman o'rmon xo'jalik bo'limi	**32**	**2**			**1**				**1**	
42	Uchquduq tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi	**115**	**8**		**2**	**2**	**2**		**2**		

43	Uchquduq tuman Sanoat texnikumi	**68**	**3**		**2**		**1**				
44	Uchquduq tuman kasb-hunar maktabi	**65**	**6**	**2**	**4**						
45	Obodonlashtirish boshkarmasi	**160**	**17**	**2**	**3**	**3**	**3**	**1**	**1**	**3**	**1**
Jami:		**14307**	**309**	**25**	**182**	**22**	**16**	**8**	**15**	**6**	**35**

Uchquduq tuman Aholi bandligiga ko’maklashish markazi direktori **J.Shodiyev**